

«TASDIQLAYMAN»
“MADAD” Davlat korxonasi
direktori
M.I. Raximov
« » 2022 yil.

Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumanida joylashgan “MADAD” Davlat korxonasiga “Quruq Terak materialidan yasalgan 1.50x1.20 metr o‘lchamli, yuk ko‘tarish qobiliyati 6 tonnadan kam bo‘lmagan Poddon harid qilish” ishlarini amalga oshirish bo‘yicha

TANLOV HUJJATLARI

Buyurtmachi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Zaxiralarini Boshqarish Qo‘mitasiga qarashli “MADAD” Davlat korxonasi

Bag ‘dod tumani – 2022 yil.

MUNDARIJA

- I. Tanlov ishtirokchisi uchun yo'l-yo'riq.
- II. Tanlovning texnik qismi.
- III. Tanlovning narxiga oid qismi.
- IV. Shartnoma loyihasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Zaxiralarini
Boshqarish Qo‘mitasiga qarashli “MADAD” Davlat korxonasi**

Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumanida joylashgan “MADAD” Davlat korxonasida “Quruq Terak materialidan yasalgan 1.50x1.20 metr o‘lchamli, yuk ko‘tarish qobiliyati 6 tonnadan kam bo‘lmagan Poddon harid qilish” ishlarini amalga oshirish bo‘yicha

Buyurtmachi: **“MADAD” Davlat korxonasi**

Mahsulotni yetkazib berish muddati: **Tanlov g‘olibi bilan shartnoma imzolangan va olindindan 30% to‘lov o‘tkazilgandan so‘ng 10 ish kunida**

Moliyalash manbai: **Budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan.**

Tanlovda mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar ishtirok etishlari mumkin:

- 1.1. Korxonada mahalliy ishlab chiqaruvchi bo‘lishi lozim.
- 1.2. Korxonada eng kamida 6 oy avval tashkil etilgan va yetarli hajmlarda ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lishi lozim.
- 1.3. Korxonada qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli vakolatli tashkilotlardan olinadigan muvofiqlik sertifikatlari, guvohnomasi bo‘lishi shart;
- 1.4. Tanlovda g‘olib bo‘lgan ishtirokchi, xarid komissiyasi tomonidan ishlab chiqarish hajmini, shart-sharoitini holatini borib joyida ko‘rish.

Tashkilotlar majburiy tartibda tanlov taklifida ishlar qiymatini QQS bilan ko‘rsatishi kerak, shuningdek barcha ilovalarda so‘ralgan masalalar bo‘yicha to‘liq ma‘lumot taqdim etishi lozim.

Tanlov savdosi ishtirokchilari: qo‘shimcha ma‘lumot va boshlang‘ich loyihaviy ma‘lumotlarini olish uchun, taklif berish muddatiga tugashiga kechi bilan 2-kun qolishidan avval, quyidagi manzilga murojaat etishlari mumkin: Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani, Bag‘dod SHFY Do‘stlik ko‘chasi 4-uy 150201

tel: (95) 404-05-20, (873)-479-30-32; faks: (873) 479-30-34.

Buyurtma berish muddati: e‘lon chop etilgan kundan boshlab 7 kun.

Tanlov takliflari elektron portal orqali amalga oshiriladi.

I. TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘L-YO‘RIQ

1 Umumiy qoidalar.

- 1.1 O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi Qonuni, 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Davlat xaridlaridagi raqobat xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari o‘rtasidagi, davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari o‘rtasidagi va ixtisoslashgan tashkilotlar o‘rtasidagi tortishuv, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqishda hamda xolis va asosli mezonlar asosida eng maqbul taklif foydasiga yakuniy qaror qabul qilishda beg‘arazlik va shaffoflik mexanizmlaridan foydalanish hisobidan qo‘llab-quvvatlanadi.
- 1.2 Tanlov predmeti: **Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumanida joylashgan “MADAD” Davlat korxonasi “Quruq Terak materialidan yasalgan 1.50x1.20 metr o‘lchamli yuk kutarish qobilyati 6 tn kam bo‘lmagan Poddon xarid qilish” ishlarini amalga oshirish bo‘yicha**
- 1.3 **Tanlov narxining eng oxirgi qiymati QQS bilan 414 000 000, 00 (To‘rt yuz o‘n to‘rt million) so‘m 00 tiyin tashkil etadi.**
Tanlov taklifida ko‘rsatilgan narxlar oxirgi qiymatdan yuqori bo‘lmasligi kerak.
- 1.4 Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnik topshiriqlar tanlov hujjatlarining texnik qismida keltirilgan.
- 1.5 Tanlov komissiyasi yig‘ilishi shakli – **elektron ravishda** bo‘ladi.

2 Tanlov ishtirokchilari

- 2.1 O‘z davzaxira Qo‘mitasiga qarashli **“MADAD” Davlat korxonasi** tanlov buyurtmachisi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi”) hisoblanadi.
“Buyurtmachi” manzili: **Farg‘ona viloyati, Bag‘dod tumani, Bag‘dod SHFY, Do‘stlik ko‘chasi 4 uy. 150201**
- 2.2 Muloqot uchun telefonlar: :
(95) 404-05-20, (873)-479-30-32
Ma’sul xodim: **L. Numanov +998 91 686 23 23**
- 2.3 “MADAD” Davlat korxonasi Tanlov komissiyasi tanlov buyurtmachisi (keyingi o‘rinlarda “Ishchi organ”) hisoblanadi.
- 2.4 Tanlov Buyurtmachi tashkil qilgan besh kishidan iborat tarkibdagi xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

- 3 Tanlov ishtirokchilari** 3.1 Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar istalgan yuridik shaxslar, shu jumladan, kichik biznes sub'ektlari ishtirok etishi mumkin (4.2 badda keltirilgan shaxslar bundan mustasno).
- 4 Tanlovni o'tkazish sharti** 4.1 Tanlovda ishtirok etish uchun, tanlov ishtirokchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:
- a) tanlov shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlov hujjatlarining elektron nusxasini olish (ko'chirish);
 - b) tanlov hujjatlar shartlariga muvofiq tanlovda elektron ravishda takliflarini taqdim etish.
- 4.2 Quyidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi:
- qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik bosqichini boshidan kechirayotgan;
 - “Buyurtmachi” bilan sudda yoki hakamlik sudda tortishayotgan;
 - Nohalol ijrochilarning yagona ro'yxatiga kiritilgan;
 - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi bor;
 - imtiyozli soliq rejimini beruvchi va/yoki moliyaviy amaliyotlarni o'tkazishda ma'lumotlarni oshkor qilish va berishni ko'zda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor zonalar) ro'yxatdan o'tgan va bank hisobraqamlariga ega bo'lgan.
- 4.3 Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish taomilida ishtirok etishdan chetlashtiradi:
- ishtirokchi to'g'ridan to'g'ri yoki vositali tarzda buyurtmachining, yoki boshqa davlat organining hozirgi mansabdor shaxsiga yoki sobiq xodimiga davlat xaridlari jarayonida biron-bir harakatni amalga oshirish, qaror qabul qilish yoki biron-bir tanlov taomilini qo'llashga ta'sir ko'rsatish maqsadida har qanday shakldagi mukofot, ishga olishni yoki har qanday qimmatbaho buyum yoki xizmat ko'rsatishni taklif qilgan, bergan yoki bunga rozi bo'lgan taqdirda;
 - ishtirokchi adolatsiz tanlov ustunligiga ega bo'lsa yoki qonunga zid bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa.
- 5 Tanlov tili.** 5.1 Tanlov taklifi, ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan u bilan bog'liq bo'lgan barcha yozishmalar, hujjatlar o'zbek (lotin) tilida bo'lishi kerak.

- 6 Tanlov taklifi uni rasmiylashtirish tartibi**
- 6.1 Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari, o'z takliflarini e'londa belgilangan tartibda elektron ravishda taqdim qiladi.
- 6.2 Tanlov ishtirokchisi: taqdim qilinayotgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun ma'sul hisoblanadi;
- 6.3 Tanlov taklifi tanlov shartlariga mos bo'lgan va quyidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi narxga oid qismdan tashkil topadi: xizmatning nomlanishi, xizmat ko'rsatish qiymati, yakuniy summa, to'lov shartlari, taklifning amal qilishi muddati va h.z.
- 6.4 Tanlov takliflari: e'lon chop etilgan kundan boshlab 7 kun davomida (Davlat xaridlari maxsus axborot portalida (xarid.uz.ex) ko'rsatilgan vaqtgacha) elektron qabul qilinadi
- 6.5 Ishtirokchilar tanlov takliflari amal qilishi muddati taqdim qilingan tanlov takliflari taqdim qilinishi tugallangan kundan 7 kundan oshmasligi kerak.
- 7 Tomonlar ma'suliyati va maxfiylikka rioya qilish**
- 7.1 O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan javobgarlik quyidagilarga yuklatiladi: kelib tushayotgan tanlov takliflari hisobini yuritayotgan, maxfiyligini ta'minlayotgan ishchi organ tarkibiga kiruvchi shaxslar komissiya raisi va a'zolari, shuningdek tanlov takliflarini o'rganish uchun tashkil qilingan ishchi guruh a'zolari ma'lumotlarni oshkor qilish, ishtirokchilar, komissiyaning boshqa a'zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til birlashtirishga yo'l qo'yish, shuningdek boshqa noqonuniy xatti-harakatlar uchun. shartnoma bo'yicha majburiyatlarni (miqdor, sifat va texnik ko'rsatkichlar bo'yicha) bajarmagan tanlov g'olibi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan tarzda javobgar hisoblanadi.
- 8 Boshqa shartlar**
- 8.1 Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirishlar olish uchun ishchi organga murojaat qilishga haqli.
- 8.2 Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov o'tkazilishi haqidagi e'londa keltirilgan shakldagi tanlov hujjatlari qoidalarini bo'yicha tushuntirishlar berish haqida so'rov yuborishga haqli. Ushbu so'rov buyurtmachiga takliflar berilishi yakunlanishi sanasidan kamida ikki kun avval kelib tushgan taqdirda buyurtmachi ko'rsatilgan so'rov kelib tushgan sanadan boshlab ikki ish kuni davomida

belgilangan shaklda tanlov hujjatlari qoidolari bo'yicha tushuntirishlar yuborishga majbur. Tanlov hujjatlari qoidolari bo'yicha tushuntirishlar uning mazmuniga zid bo'lmasligi kerak.

8.3 Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tanlovni bo'lib o'tmagan deb e'lon qilishi mumkin:

- tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan taqdirda;
- takliflarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha tanlov komissiyasi barcha takliflarni tanlov hujjatlari talablariga mos emasligi tufayli rad etgan taqdirda.

8.4 G'olib chiqqan taklif akseptigacha buyurtmachi istalgan paytda tanlovni bekor qilishi mumkin (sababini bildirgan holda).

9 Shartnoma tuzilishi

9.1 Tanlov natijalarga ko'ra shartnoma u bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim qilnayotgan tanlov hujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan shartlarda tuziladi.

9.2 Tanlov g'olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda, shartnoma tuzish huquqi zahiradagi ijrochiga o'tadi. Bunda zahiradagi ijrochi tanlov g'olibi taklif qilgan narxlarda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

TEXNIK SHARTLAR

Mahsulot nomi: Farg ‘ona viloyati, Bag ‘dod tumanida joylashgan “MADAD” Davlat korxonasida “Terak mahsulotidan yasalgan 1.50ga 1.20 o ‘lchamlik qalinligi 3.0 sm yuk kutarish hajmi 6 tn kam bo ‘lmagan Poddon harid qilish” ishlarini amalga oshirish bo‘yicha

Tartib raqami	Asosiy ma ‘lumotlar va talablar ro‘yxati	Asosiy ma ‘lumotlar tarkibi va talablari
1	2	3
1	Buyurtmachi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Zaxiralarini boshqarish qo‘mitasiga qarashli “MADAD” Davlat korxonasi.
2	Ob ‘ektning joylashgan manzili	Farg ‘ona viloyati, Bag ‘dod tumani, Bag ‘dod SHFY Do ‘stlik ko ‘chasi 4-uy
3	Xizmat turi	Farg ‘ona viloyati, Bag ‘dod tumanida joylashgan “MADAD” Davlat korxonasida “Terak mahsulotidan yasalgan 1.50ga 1.20 o ‘lchamlik diometri 3.0 sm yuk kutarish hajmi 6 tn kam bo ‘lmagan Poddon harid qilish” ishlarini amalga oshirish bo‘yicha
4	Moliyalashtirish manbalari	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan
5	Ishning cheklangan qiymati	<p><u>Tanlovning maksimal qiymati 414 000 000 (To ‘rt yuz o ‘nto ‘rt million) so‘mni tashkil qiladi.</u> Tanlov taklifida ko‘rsatilgan narxlar QQS bilan oxirgi qiymatdan yuqori bo‘lmasligi kerak.</p> <p>Takliflar elektron tarzda 2022-yil 1-iyun soat 18:00 gacha qabul qilinadi.</p>

6	Ishning asosiy ko'lam	<p>Farg 'ona viloyati, Bag 'dod tumanida joylashgan "MADAD" Davlat korxonasida "Terak mahsulotidan yasalgan 1.50ga 1.20 o 'lchamlik qalinligi 3.0 sm yuk kutarish qobilyati 6 tn kam bo 'lmagan Poddon harid qilish" ishlarini amalga oshirish:</p> <p>1) Terak mahsulotidan yasalgan 1.50ga 1.20 o 'lchamlik qalinligi 3.0 sm yuk kutarish hajmi 6 tn kam bo 'lmagan Poddon harid qilish – 300 000 (uch yuz ming) so 'm 0 tiyin</p> <p><u>Umumiy 1380 dona</u> Terak mahsulotidan yasalgan 1.50ga 1.20 o 'lchamlik qalinligi 3.0 sm yuk kutarish hajmi 6 tn dan kam bo 'lmagan Poddon harid qilish qiymati – <u>414 000 000 (To 'rt yuz o 'nto 'rt million) so 'm 0 tiyini tashkil qiladi.</u></p>
---	-----------------------	---